


**CHIGIT SARALAGICHLAR BO'YICHA O'TKAZILGAN TAXLILLAR NATIJALARI****Sarimsaqov Akramjon Usmanovich***dotsent,***Komilov Shuxratjon Raximjon o'g'li***tayanch doktorant,***Inamova Maftuna***assistent***Toshpo'latov Mansur***talaba.*

Ma'lumki, chigitlarning kattaligi bo'yicha ajratishda 3 o'lchov asos qilib olingan (koordinata bo'yicha uzunlik, kenglik va qalinlik darajasi). Turli ko'rinishdagi to'rtli yuzalar mavjud: yassi, silindrik va jalyuzi ko'rinishida va hokazo. Bundan tashqari urug'larni tozalash va saralashda tebranuvchi elaklar ishlatiladi. Ular ishlatilganda urug' massasidan mayda, hom va singanlari ajratib olinadi. Iflos qo'shimchalar ham ular bilan birga chiqib ketadi [1].


Ushbu konstruksiyaning afzalligi uning konstruksiyasi sodda, oddiyligi, ishlatishda qulayligi, mayda va pishmagan urug'larni ajratish imkoniyati, kamchiligi esa katakchalarda urug'larning tiqilib qolishi va buning natijasida unumdorlikning kamayishi hamda urug'larning fraksiyalar bo'yicha ajratib olish samarasining pastligidir.

Suyuqliklar muhitida urug'larni saralash masalasi bilan ham ko'pchilik olimlar shug'ullanganlar Bu usulda paxta chigitlarini saralashda vertikal va gorizontal oqimlar hamda turli ko'rinishdagi ishchi qismlar qo'llanilgan. Urug'larni suyuqliklar yordamida saralashning mavjud usullari ichida Paxtasanoat ilmiy markazida yaratilgan tuksizlantirilgan chigitlarni xajmiy massasi bo'yicha saralovchi uskuning laboratoriya nusxasi alohida ahamiyatga ega. Bu qurilmaning sxemasi 1-rasmda keltirilgan.




1-rasm. Tuksizlantirilgan chigitlarni xajmiy massasi bo'yicha saralovchi uskuna sxemasi. 1- shaxta 2 - quvur; 3 - tag qismi; 4 - kamera; 5 -mahkamlagich; 6 - o'tkazgich-lotok; 7 - to'rsimon lotok; 8 -idish.

Ushbu model asosida suyuqlikda gorizontal oqimdagi saralash tamoyili yotadi. Saralash jarayoni mohiyati quyidagilardan iborat. Urug' ta'minlagichdan vertikal shaxta 1 birga keladi. Uning pastki qismida quvur 2 joylashgan. U urug'lar ko'ndalang kesim 3 orqali o'tkazadi. Bu oqimda barcha urug'lar to'la namlanadi. Suyuqlik oqimi bilan birga urug'lar kameraning kengaygan qismi 4 ga yetib boradi. Kamera kichik konussimon bachok bo'lib, undan cho'kib qolgan urug'lar moslama orqali to'rsimon lotok 7ga yetib oladi, yuzaga chiqib qolgan urug'lar esa qayta o'tkazuvchi lotok 6 orqali boshqa to'rsimon lotokka o'tadi. Lotok 6 dan o'tayotgan yuqoridagi suyuqlik bachok 8 ga tushadi. Ekishga mo'ljallangan urug'lar esa quritishga jo'natiladi. Ushbu moslamaning afzallik tomoni nimjon va to'la yetilmagan urug'lar to'la ajratib olish imkonini berishidir. Bu usulning kamchiliklari suyuqlik sarfining yuqoriligi, ajraladigan fraksiyalarning cheklanganligi, ish unumi va samaradorligining nisbatan pastligidir. Shuningdek, bu usulda ajratib olingan fraksiyalarni quritish zaruriyati yuzaga keladiki, bu holat maxsulot tannarxini yanada oshishiga sabab bo'ladi.



1.1-rasm. Baraban tipidagi elektr seperatorning ishlash texnologiyasi.


1- bunker, 2 - qoziqli baraban, 3 - ta'minlagich, 4 - tojsimon elektron, 5- yerga ulangan baraban, 6 - qabul qiluvchi bunker, 7 - ajratuvchi shyotka, 8 - lotok, 9 - qoziqchali yo'naltirgich.



2-rasm. SSL-6 paxta chigitini saralagich sxemasi

Separatordagi ajratish jarayoni quyidagicha amalga oshadi: Paxta chigitlari ta'minlagich bunkeri 1 da, ta'minlovchi baraban 2 yordamida titiladi va bir me'yorda aylanuvchi 4-barabanga uzatiladi. U yerda elektrod joylashgan bo'lib, u yuqori kuchlanishli manbaaga ikki qutbli kontakt halqachalar yordamida ulangan. Paxta chigitlari elektr maydon muhitiga tushirilib, elektr kuchi yordamida tortiladi. Bundan tashqari urug'larga markazga intiluvchi kuch, og'irlik, vazn va ishqalanish o'z ta'sirini o'tkazadi. Buning natijasida og'ir, yirik va sog'lom urug'lar baraban yuzasidan tezda

ajraydi, erkin fraksiyaga tushadi. Mayda, nimjon va nam urug'lar elektr kuchi yordamida harakatlanishni davom ettiradi va baraban yuzasidan chotka 13 yordamida olib tashlanadi. Yuqori barabanning egiluvchi fraksiyasi pastki barabanga qayta separatsiyalash uchun jo'natiladi. 2 marotaba separatoridan o'tgan urug'lar shnek 10, chiqindilar esa shnek 11 dan chiqib ketadi.



3-rasm. Tukli paxta chigiti fraksiyalarini vertikal havo oqimida ajratish qurilmasi

Chigitlarni fraksiyalanish jarayoni talab darajasida emas, vertikal havo oqimining energiya sarfi yuqori bo'ladi. Bundan tashqari chigitlarni havo yordamida ajratish usulida "Paxtasanoat ilmiy markazi" tomonidan ishlab chiqilgan SXA,USM markali saralagich-tozalagichlar ham ishlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Miloxov N.I Solvyev N.D. Miroshnichenko G.I "Малевская Р.Ф; Под. Ред Соловьёва Н.Д, Первичная обработка хлопка Москва ГИЗ Легпром,1959,с525
2. Dyachkov V.V, Rakipov V.G, Махкамов I.R Агрегат для очистки и сортирования опушенных повесных семян хлопчатника "Журнал" Хлопковая промышленность,1991г N5 стр.16
3. То'хтабойев S.T,Lugachyov A.Ye, Rakipov V.G "Разработка технологии сортирования повесных семян хлопчатника " МНТК "Актуальные проблемы переработки льна в современных условиях" Кострома,2000г. КГТУ.
4. Saydaxmedov S.A "Очистка линта от сорных примесей" Хлопковая промышленность,N6,1981,стр.9-10.